O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарилов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSİYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeve Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDBUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich

“Turonbank” ATB Buxgalteriya hisobi departamenti

Buxgalteriya hisobi va nazorati boshqarmasi boshlig'i – bosh buxgalter o'rinbosari

E-mail: boby_1986@bk.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy mohiyati hamda uning bank faoliyati samaradorligiga ta'siri tadqiq etilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning bank amaliyotiga joriy etilishi moliyaviy xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, bank biznes modelining transformatsiyasiga olib kelayotgani ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida bank xizmatlarini raqamlashtirishning nazariy asoslari o'rganilib, an'anaviy va raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan. O'zbekiston bank tizimi misolida raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, raqamlashtirish jarayoni operatsion xarajatlarni qisqartirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va mijozlar qamrovini kengaytirish orqali bank faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: raqamli bank, bank xizmatlari, tijorat banklari, raqamlashtirish, digital banking, fintex, bank samaradorligi, masofaviy bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, bank biznes modeli.

Abstract. This article examines the economic essence of digitalization of commercial banking services and its impact on the efficiency of banking activities. It is scientifically substantiated that the introduction of modern digital technologies into banking practice fundamentally changes the mechanisms of financial service delivery and leads to the transformation of banks' business models. The study explores the theoretical foundations of banking digitalization and provides a comparative analysis of the economic characteristics of traditional and digital banking services.

The research employs systemic analysis, comparative analysis, and economic-statistical methods. Based on the case of Uzbekistan's banking system, the development trends of digital banking services are analyzed. The findings indicate that digitalization positively affects banking efficiency by reducing operational costs, increasing service speed, and expanding customer coverage.

Key words: digital banking, banking services, commercial banks, digitalization, fintech, banking efficiency, remote banking services, digital transformation, banking business model.

Аннотация. В данной статье исследуется экономическая сущность цифровизации банковских услуг коммерческих банков и её влияние на эффективность банковской деятельности. Научно обосновано, что внедрение современных цифровых технологий в банковскую практику трансформирует механизмы предоставления финансовых услуг и приводит к изменению бизнес-модели банков. В ходе исследования изучены теоретические основы цифровизации банковских услуг, а также проведён сравнительный анализ экономических характеристик традиционных и цифровых банковских услуг.

В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, а также экономико-статистические методы. На примере банковской системы Республики Узбекистан проанализированы тенденции развития цифровых банковских услуг, установлено, что процесс цифровизации оказывает положительное влияние на эффективность деятельности банков за счёт снижения операционных затрат, повышения скорости обслуживания и расширения клиентского охвата.

Ключевые слова: цифровой банк, банковские услуги, коммерческие банки, цифровизация, digital banking, финтех, эффективность банка, дистанционные банковские услуги, цифровая трансформация, бизнес-модель банка.



KIRISH

Jahon moliya bozorida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi faoliyatini tashkil etish tamoyillarini tubdan o'zgartirmoqda. So'nggi yillarda moliyaviy xizmatlar sohasida raqamli platformalar, mobil banking, masofaviy identifikatsiya, sun'iy intellekt hamda fintex yechimlarining keng joriy etilishi natijasida bank xizmatlarini ko'rsatish shakli an'anaviy modeldan raqamli ekotizim modeliga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Ushbu jarayon banklar faoliyatida nafaqat texnologik yangilanish, balki xizmatlarni yaratish, taqdim etish va boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini qayta shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish sharoitida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish tezligi oshib, tranzaksion xarajatlar qisqarmoqda hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Xususan, raqamli kanallar orqali xizmat ko'rsatish banklarning operatsion xarajatlarini optimallashtirish, mijozlar qamrovini kengaytirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Natijada bank faoliyati samaradorligini baholashda raqamli xizmatlar ulushi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda jahon amaliyotida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank biznes modelining transformatsiyasiga olib kelayotgani kuzatilmoqda. An'anaviy, filiallarga asoslangan bank modeli bosqichma-bosqich ma'lumotlarga tayanuvchi va masofaviy xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli bank modeli bilan almashmoqda. Bu esa banklar raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

O'zbekiston bank tizimida ham so'nggi yillarda moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklarida mobil ilovalar, onlayn to'lov xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, raqamli kreditlash hamda avtomatlashtirilgan xizmat platformalarining joriy etilishi bank xizmatlari bozorining rivojlanish sur'atlarini oshirmoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy mazmunini chuqur ilmiy asosda baholash, uning bank faoliyati samaradorligiga ta'sir etish mexanizmlarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli banklar, fintex texnologiyalari hamda moliyaviy xizmatlarni transformatsiya qilish masalalari keng o'rganilgan. Biroq bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy mohiyati, xususan, xarajatlar samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va bank faoliyati natijaviy ko'rsatkichlariga ta'siri masalalari yanada kompleks va tizimli tahlilni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xizmatlarini raqamlashtirish masalasi so'nggi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotlarida eng faol o'rganilayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank faoliyati mazmuni, xizmat ko'rsatish usullari hamda moliyaviy vositachilik mexanizmlarida muhim o'zgarishlarga olib kelayotgani ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli bank tushunchasi, asosan, moliyaviy xizmatlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida transformatsiya qilish jarayoni sifatida talqin etiladi. Jumladan, Chris Skinner bank tizimi rivojlanishini an'anaviy bank modelidan raqamli platformalarga asoslangan bank ekotizimiga o'tish jarayoni sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, raqamlashtirish banklarning xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirib, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yangi iqtisodiy formatga olib chiqadi.

Shuningdek, Brett King tadqiqotlarida raqamli banklar bank infratuzilmasining fizik filiallarga bog'liqligini kamaytirishi hamda moliyaviy xizmatlarni real vaqt rejimida taqdim etish imkoniyatini yaratishi qayd etiladi. Muallif raqamli bank modelini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimi sifatida baholaydi.

Moliyaviy vositachilik nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, Frederic S. Mishkin banklar faoliyatida axborot asimmetriyasini kamaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar ushbu muammoni bartaraf etish orqali kreditlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani ilmiy ishlarda asoslanadi.

So'nggi tadqiqotlarda fintex texnologiyalarining bank samaradorligiga ta'siri alohida yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Xususan, Douglas W. Arner, Janos Barberis va Ross P. Buckley ilmiy ishlarida raqamli moliyaviy xizmatlar tranzaksion xarajatlarni qisqartirishi, xizmat ko'rsatish tezligini oshirishi hamda yangi biznes modellarni shakllantirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ayrim tadqiqotlarda raqamlashtirish bank faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlar hisobotlarida raqamli kanallar orqali xizmat ko'rsatish an'anaviy filiallarga nisbatan kamroq xarajat talab qilishi qayd etiladi. Ushbu holat banklarning operatsion samaradorligini oshirish bilan bir qatorda moliyaviy xizmatlarning ommabopligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish hamda moliyaviy xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish masalalari izchil tadqiq etilmoqda. Ushbu ilmiy ishlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasini kengaytirish va banklar raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlari asosan texnologik yoki tashkiliy jihatdan yoritilgan bo'lib, ularning iqtisodiy mohiyati, jumladan bank xarajatlari tuzilmasi, resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy natijalarga ta'sir etish mexanizmlari masalalari yanada tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Mazkur holat tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish, shuningdek, uning bank faoliyati samaradorligiga ta'sirini chuqur va tizimli tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy mohiyatini aniqlash hamda uning bank faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullarining o'zaro uyg'unligi ta'minlandi.

Tadqiqotning metodologik asosini moliyaviy vositachilik nazariyasi, raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi hamda bank faoliyati samaradorligini baholashga oid ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni yaxlit iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari, milliy statistika ma'lumotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar materiallari tashkil etdi. Tahlil jarayonida, asosan, so'nggi yillarda bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Qo'llanilgan metodologik yondashuv bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini nafaqat texnologik o'zgarish sifatida, balki bank resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi muhim iqtisodiy omil sifatida baholash imkonini berdi. Natijada raqamli transformatsiyaning bank faoliyati natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etish mexanizmi ilmiy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni bank faoliyatida faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki iqtisodiy munosabatlar va xizmat ko'rsatish mexanizmining transformatsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bank xizmatlarini tashkil etish, resurslardan foydalanish va daromad shakllantirish modellarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Bank xizmatlarining raqamli transformatsiya bosqichlari

Tahlil natijalariga ko'ra, bank xizmatlari rivojlanishi shartli ravishda quyidagi bosqichlarda shakllangan:

1. An'anaviy bank bosqichi — xizmatlar asosan filiallar orqali amalga oshirilgan;
2. Avtomatlashtirish bosqichi — bankomatlar va masofaviy to'lov tizimlari joriy etilgan;
3. Raqamli bank bosqichi — internet va mobil banking xizmatlari kengaygan;
4. Platforma bank bosqichi — fintex xizmatlari va raqamli ekotizim shakllana boshlagan.

Ushbu evolyusiya bank xizmatlarini ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va operatsiyalarni amalga oshirish tezligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy mohiyati

Tadqiqot davomida raqamlashtirishning iqtisodiy mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlangan:


- tranzaksion xarajatlarning qisqarishi;
- xizmat ko'rsatish jarayonlarining avtomatlashuvi;
- inson omiliga bog'liq operatsion xarajatlarning kamayishi;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligining oshishi;
- bank xizmatlari masshtabini kengaytirish imkoniyati.

Raqamli kanallar orqali xizmat ko'rsatish an'anaviy filial infratuzilmasiga nisbatan ancha kam xarajat talab qiladi va bu banklarning operatsion samaradorligini oshirishga olib keladi. Natijada banklar kam resurslar hisobiga ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish bank faoliyatida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modelining shakllanishiga sharoit yaratadi. Mijozlar operatsiyalari bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish kreditlash, risklarni baholash va individual moliyaviy xizmatlar taklif etish samaradorligini oshiradi.



Tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish bank faoliyati samaradorligiga ko'p bosqichli iqtisodiy ta'sir mexanizmi orqali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonning konseptual modeli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy ta'sir modeli¹.

1-rasmda tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni bank faoliyatida qanday iqtisodiy ta'sir ko'rsatishini aks ettiruvchi model keltirilgan. Mazkur modelga ko'ra, raqamli texnologiyalarni bank xizmatlari jarayoniga joriy etish xizmat ko'rsatish usullarining transformatsiyasiga olib keladi. Natijada bank operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlari qisqaradi, operatsion jarayonlar avtomatlashtiriladi va mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi oshadi.

Rasmda ko'rsatilganidek, raqamlashtirish jarayoni avval bank xizmatlarining raqamli shaklga o'tishi orqali iqtisodiy transformatsiya mexanizmlarini shakllantiradi. Ushbu jarayon tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish imkonini yaratadi. Natijada bank faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar, xususan, aktivlar va kapital rentabelligi oshadi hamda xarajatlar samaradorligi yaxshilanadi.

Shu tariqa, bank xizmatlarini raqamlashtirish banklarning an'anaviy faoliyat modelidan raqamli platformaga asoslangan biznes modeliga o'tishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda raqamli bank xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Tahlillar bank xizmatlarining katta qismi bosqichma-bosqich masofaviy kanallarga o'tayotganini ko'rsatdi. Xususan:

- mobil banking foydalanuvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda;
- onlayn to'lov operatsiyalari hajmi sezilarli darajada oshgan;
- masofaviy bank xizmatlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar ulushi kengaygan;
- raqamli kreditlash xizmatlari joriy etilmoqda.

Bu jarayon bank filiallariga tushayotgan operatsion yuklamani kamaytirib, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

1 Muallif ishlanmasi



Tadqiqot natijalari raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqladi. Jumladan:

- operatsion xarajatlar nisbatan qisqarmoqda;
- xizmat ko'rsatish tezligi oshmoqda;
- mijozlar bazasi kengaymoqda;
- xizmatlardan olinadigan komission daromadlar o'smoqda;
- Cost-to-Income koeffitsientining yaxshilanishi kuzatilmoqda.

Natijada raqamlashtirish bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy omil sifatida shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni bank tizimida xizmat ko'rsatish texnologiyalarining yangilanishi bilan cheklanmay, bank faoliyatining iqtisodiy mazmuni va biznes modelining o'zgarishiga ham olib kelmoqda. Raqamli transformatsiya banklarning resurslardan foydalanish samaradorligini, xarajatlar tuzilmasi va daromad shakllantirish mexanizmlarini qayta shakllantirmoqda.

An'anaviy bank modelida xizmat ko'rsatish asosan filial tarmoqlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, raqamli bank modelida asosiy urg'u masofaviy xizmat kanallari va raqamli platformalarga ko'chmoqda. Bu banklarning doimiy operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan birga xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish imkonini yaratadi. Natijada banklar faoliyatida masshtab samarasi shakllanib, bir vaqtning o'zida ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish banklar o'rtasida raqobat muhitini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ilgari raqobat asosan filiallar soni va resurs bazasi orqali shakllangan bo'lsa, hozirgi sharoitda raqobat raqamli xizmatlar sifati, mobil ilovalar funktsionalligi va mijozlar uchun yaratilgan raqamli ekotizim darajasi bilan belgilanadi. Bu esa banklarni innovatsion xizmatlarni joriy etishga undovchi iqtisodiy omilga aylantiradi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bank risklariga ham ta'sir ko'rsatadi. Operatsion jarayonlarning avtomatlashuvi inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirsada, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi va texnologik risklarning ahamiyati ortib bormoqda. Demak, raqamli bank muhitida samaradorlikning oshishi risklarni boshqarish tizimlarini ham modernizatsiya qilishni talab qiladi.

O'zbekiston bank tizimi misolida raqamli xizmatlarni joriy etish moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Masofaviy bank xizmatlari aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu milliy bank tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim iqtisodiy shartlardan biridir.

Tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda shuni tasdiqladiki, raqamlashtirish bank faoliyati samaradorligini oshirishning strategik omili hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy bank amaliyotida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini to'liq namoyon qilish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ma'lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruv qarorlarini keng joriy etish va fintex kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

Shunday qilib, bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonini iqtisodiy kategoriya sifatida baholash bank faoliyati samaradorligini oshirishning yangi nazariy va amaliy yondashuvlarini shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish zamonaviy bank tizimi rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni bank amaliyotiga joriy etish xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish bilan bir qatorda bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida bank xizmatlarini raqamlashtirish faqat texnologik modernizatsiya emas, balki bank biznes modelining iqtisodiy transformatsiyasi ekanligi aniqlangan. Raqamli xizmatlar bank operatsiyalarini amalga oshirish xarajatlarni qisqartirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirish orqali banklarning daromadlilikiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

- Bank xizmatlarini raqamlashtirish moliyaviy xizmatlarni taqdim etishning yangi iqtisodiy mexanizmini shakllantiradi;
- Raqamli kanallardan foydalanish operatsion xarajatlarni kamaytirish orqali bank samaradorligini oshiradi;
- Raqamli bank xizmatlari mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilab, moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytiradi;
- Raqamli transformatsiya banklarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.



Tadqiqot natijalariga tayangan holda tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishni bank strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilash maqsadga muvofiq.
2. Bank xizmatlarini masofaviy kanallar orqali ko'rsatish ulushini oshirish orqali operatsion xarajatlarni optimallashtirish zarur.
3. Mijozlar ma'lumotlariga asoslangan raqamli tahlil tizimlarini joriy etish bank xizmatlarini individuallashtirish imkonini kengaytiradi.
4. Fintex kompaniyalar bilan hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish raqamli innovatsiyalarni joriy etish sur'atini oshiradi.
5. Raqamli bank xizmatlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida kiberxavfsizlik boshqaruv tizimlarini kuchaytirish talab etiladi.
6. Bank xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini baholovchi yagona iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish bank tizimining barqaror rivojlanishi, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini keng joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi to'g'risida yillik hisobotlar, Toshkent, 2021–2025 yy. <https://cbu.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi, Toshkent, 2022–2025 yy. <https://cbu.uz/uz/publications>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy xizmatlar statistik ma'lumotlari. <https://stat.uz>
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 12th Edition, Pearson Education, 2019. <https://www.pearson.com>
6. Skinner C. Digital Bank: Strategies to Launch or Become a Digital Bank. Marshall Cavendish, 2014. <https://thefinanser.com>
7. King B. Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. Wiley, 2018. <https://www.wiley.com>
8. Arner D.W., Barberis J., Buckley R.P. FinTech and the Transformation of Financial Services. Journal of Banking Regulation, 2016. <https://link.springer.com/article/10.1057/jbr.2015.14>
9. Gomber P., Koch J., Siering M. Digital Finance and FinTech: Current Research and Future Research Directions. Journal of Business Economics, 2017. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11573-017-0852-x>
10. Philippon T. The FinTech Opportunity. National Bureau of Economic Research Working Paper, 2019. <https://www.nber.org/papers/w22476>
11. World Bank. Digital Financial Services Report. Washington DC, 2022. <https://www.worldbank.org>
12. International Monetary Fund. Financial Technology and Banking Sector Transformation Report. IMF, 2021. <https://www.imf.org>
13. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: Implications of FinTech Developments for Banks. BIS, 2024. <https://www.bis.org>
14. Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
